

TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV MUHITNI SHAKLLANTIRISH

Namangan davlat pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Texnologik ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Olimova Durдона Tursunboy qizi Ilmiy rahbar: G'oiyova Nodira Baxtiyorovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20200613>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim tashkilotlarida inklyuziv muhitni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Inklyuziv ta'limning mohiyati, pedagogik va psixologik jihatlari, xalqaro tajribalar hamda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan. Shuningdek, inklyuziv ta'lim jarayonida uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, ta'lim muhiti, maxsus ehtiyojli bolalar, pedagogik yondashuv, teng imkoniyat, integratsiya, differensial ta'lim, pedagog kompetensiyasi.

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – barcha bolalar uchun teng va sifatli ta'lim imkoniyatlarini yaratishdir. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi inson kapitaliga bog'liq bo'lganligi sababli, har bir shaxsning ta'lim olish huquqini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan inklyuziv ta'lim tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta'lim – bu imkoniyati cheklangan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega yoki turli ijtimoiy qatlam vakili bo'lgan bolalarni umumiy ta'lim tizimiga jalb etish, ularga teng sharoit yaratish va jamiyatga moslashtirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. UNESCO ta'rifiga ko'ra, inklyuziv ta'lim "har bir o'quvchi muhim va teng qadriyatga ega" degan tamoyilga asoslanadi. Ta'lim tashkilotlarida inklyuziv muhitni shakllantirish nafaqat nogironligi bo'lgan bolalar uchun, balki barcha o'quvchilar uchun qulay va xavfsiz pedagogik makon yaratishni anglatadi. Bunday muhitda o'quvchilar o'zlarini erkin his qiladi, ijtimoiy moslashadi va o'z salohiyatini to'liq namoyon eta oladi.

O'zbekistonda ham inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, umumta'lim maktablarida maxsus ehtiyojli bolalarni o'qitish, moslashtirilgan infratuzilmalarni yaratish, pedagoglarni qayta tayyorlash kabi vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. UNICEF va UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar ham mamlakatda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha ko'plab loyihalarni qo'llab-quvvatlamogda. Inklyuziv ta'lim tushunchasi lotincha "include" – "o'z ichiga olmoq" ma'nosini bildiradi. Bu tushuncha ta'lim tizimida hech bir bolaning chetda qolmasligini, barcha o'quvchilar teng huquqqa ega ekanligini ifodalaydi.

An'anaviy ta'lim tizimida imkoniyati cheklangan bolalar ko'pincha maxsus maktablarda ta'lim olgan. Biroq zamonaviy pedagogik yondashuvlar bunday bolalarni jamiyatdan ajratish emas, balki ular bilan sog'lom tengdoshlari birgalikda ta'lim olishini qo'llab-quvvatlaydi. Shu sababli inklyuziv ta'lim ijtimoiy integratsiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta'lim quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi-teng huquqlilik, diskriminatsiyaning oldini olish, individuallashtirilgan yondashuv, hamkorlik pedagogikasi, ijtimoiy moslashtirish va insonparvarlik. UNESCOning "Inclusion in Education" dasturida ta'kidlanishicha, inklyuziv ta'lim faqat nogironligi bo'lgan bolalarni qamrab olish emas, balki barcha bolalarning ehtiyojlarini hisobga oluvchi ta'lim tizimini yaratishni anglatadi. Inklyuziv muhit shakllangan ta'lim muassasasida har bir bola qadrlanadi, o'quvchilarning individual xususiyatlari inobatga olinadi,

psixologik qo'llab-quvvatlash mavjud bo'ladi pedagoglar tolerantlik ruhida ishlaydi va ota-onalar bilan hamkorlik yo'lga qo'yiladi. Bunday muhit o'quvchilarda mehr-oqibat, bag'rikenglik va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi.

Ta'lim tashkilotlarida inklyuziv muhitni shakllantirish pedagogik jihatdan murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayon o'quv dasturlarini moslashtirish, pedagoglarning malakasini oshirish, maxsus metodikalarni qo'llash va psixologik xizmatni tashkil etishni talab etadi.

Pedagogik jihatdan inklyuziv ta'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: har bir bolaning ehtiyojini aniqlash, individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, differensial yondashuvni qo'llash, o'quvchilar o'rtasida ijobiy ijtimoiy muhit yaratish va ota-onalar bilan hamkorlik qilish. Inklyuziv sinfda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki psixolog va motivator vazifasini ham bajaradi. Shu sababli pedagogdan maxsus kompetensiyalar talab etiladi. Tadqiqotlarda o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi inklyuziv ta'lim muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri ekani qayd etilgan. Inklyuziv muhit yaratishda samarali pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi. Bular, interfaol metodlar, hamkorlikda o'qitish, loyiha asosida ta'lim, moslashtirilgan o'quv materiallari va axborot kommunikatsion texnologiyalardir.

Masalan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun vizual materiallardan foydalanish samarali bo'lsa, ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun audioresurslar muhim ahamiyatga ega. Pedagogik jarayonda differensial yondashuv qo'llanilganda har bir bolaning qobiliyati va imkoniyatidan kelib chiqib topshiriqlar. Bu esa o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati ko'p jihatdan psixologik muhitga bog'liq. Agar sinfda o'zaro hurmat va bag'rikenglik mavjud bo'lsa, maxsus ehtiyojli bolalar o'zlarini erkin his qiladi. Ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, imkoniyati cheklangan bolalarni jamoadan ajratish ularning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Inklyuziv sinf esa ularda ijtimoiy faollik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, sog'lom o'quvchilarda ham bag'rikenglik va mehr-shafqat hissini shakllantirish inklyuziv muhitning muhim natijalaridan biridir. So'nggi yillarda O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat siyosatida "hech kim e'tibordan chetda qolmasligi kerak" degan tamoyil ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmoqda. Xususan O'zbekistonda inklyuziv maktablar soni oshirilmoqda, pedagoglarni qayta tayyorlash kurslari tashkil etilmoqda, universal dizayn asosida maktablar qurilmoqda va maxsus o'quv dasturlari ishlab chiqilmoqda. UNICEF ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 2027 yilgacha yangi va rekonstruksiya qilinadigan maktablarning kamida 20 foizida imkoniyati cheklangan bolalar uchun sharoit yaratish rejalashtirilgan. Bundan tashqari: Brayl alifbosidagi darsliklar, surdotarjimon xizmatlari, moslashtirilgan texnologiyalar va resurs markazlari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni ham barcha fuqarolarning teng ta'lim olish huquqini kafolatlaydi. Shu bilan birga, amaliyotda ayrim muammolar ham mavjud. Malakali mutaxassislar yetishmasligi,

infratuzilmaning to'liq moslashmaganligi, ota-onalarning yetarli bilimiga ega emasligi va jamiyatdagi stereotiplardir. Mazkur muammolarni hal etish uchun davlat, jamiyat va xalqaro tashkilotlar hamkorligi zarur. Dunyoning rivojlangan davlatlarida inklyuziv ta'lim tizimi ancha rivojlangan. Finlandiya, Kanada, Yaponiya kabi davlatlar bu borada katta tajribaga ega. Bu davlatlarda

har bir o'quvchi uchun individual rivojlanish rejasi tuziladi, psixologik yordam tizimi rivojlangan, o'qituvchilar maxsus tayyorgarlikdan o'tadi, audio darsliklar,

maxsus sensor qurilmalar va sinflarda assistent pedagoglar faoliyat yuritadi. Bu esa o'qituvchining ishini yengillashtiradi va o'quvchilarga individual yordam ko'rsatishga imkon

beradi. Inklyuziv ta'limni amalga oshirish jarayonida ba'zi muammolarga duch kelinmoqda. Masalan, moddiy baza yetishmasligi, maxsus jihozlarning kamligi, pedagoglar malakasining pastligi va stereotiplardir. Ko'plab maktablarda panduslar, liftlar yoki maxsus sanitariya xonalari mavjud emas. Bu esa imkoniyati cheklangan bolalar uchun qiyinchilik tug'diradi.

Shuningdek, ayrim ota-onalar sog'lom va maxsus ehtiyojli bolalarning birgalikda o'qishini to'liq qabul qilmaydi. Shu sababli targ'ibot ishlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglarni muntazam qayta tayyorlash, maxsus infratuzilma yaratish, ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, qonunchilik bazasini takomillashtirish va xalqaro tajribalarni o'rganish orqali inklyuziv muhitni samarali tashkil etish mumkin. Bugungi kunda O'zbekistonda

ko'plab umumta'lim maktablarida inklyuziv sinflar faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birgalikda brayl alifbosidagi kitoblar chop etilmoqda, surdotarjimon xizmatlari yo'lga qo'yilmoqda, maktablarda pandus va maxsus infratuzilmalar qurilmoqda.

Mening fikrimcha, inklyuziv ta'lim barcha bolalarning teng huquqli ta'lim olishini ta'minlaydi hamda jamiyatda insonparvarlik va bag'rikenglikni rivojlantiradi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bo'yicha muhim qadamlar tashlanayotgan bo'lsa-da, bu yo'nalishda hali amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar ko'p. Pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish, infratuzilmani takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va jamiyatning ijobiy munosabatini shakllantirish inklyuziv muhitning asosiy omillari hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim orqali har bir bola o'z qobiliyatini namoyon etish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa kelajakda adolatli va barqaror jamiyat qurilishiga xizmat qiladi.

References:

1. UNESCO. Inclusion in Education. UNESCO Publishing, 2020.
2. UNICEF. Inklyuziv ta'lim bo'yicha hisobotlar, 2024. unicef.org
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2020.
4. Abdullaev A. "Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar va sabablar", 2022.
5. Rizayeva Sh. "Inklyuziv ta'limda o'qituvchilar roli: muammo va rai-
6. Umaraliyeva S., Nazarova D. "Inklyuziv ta'limning xalqaro tajribasi va uning O'zbekiston boshlang'ich ta'limiga tatbiqi", 2024.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining inklyuziv ta'limni rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari.